

OLIY T'ALIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY T'ALIM JARAYONLARINI TASHKIL ETISH

U.Sh.Sabirova

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU katta o'qituvchisi

Email: ullibibi1974@mail.ru

Annotasiya: Maqolada oliy t'alim tizimida masofaviy t'alim va uni o'ziga xos xususiyatlari, masofaviy t'alim tizimini tashkil kilish usul, shakl va vositalari, ahamiyati, masofaviy o'qitish modellari va ularning turlari atroflicha ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy t'alim tizimi, masofaviy t'alim modellari, eksternat, konsortsium, texnik fanlar, uzoqlashtirilgan auditoriyalar, loyihalar.

Asisiy qism

Talaba bugungi globallashuv jarayonida yangi informatsiya olishning tezkor usullaridan foydalanadi. Uning vaqt taqsimoti, kundalik rejasi buzilmaydi. U o'ziga qulay vaqtda kirib, mavzularni o'zlashtirishi, vazifa va topshiriqlarni olishi, ularni bajarishi va baholanish imkoniyatlari kengayadi. Eng muhimi, bu t'alim yoshlarni fikrlashga, mustaqil ishlash, izlanishga o'rgatadi. Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarni jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma'ruzalar t'alim oluvchilarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar,

topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish t'olim oluvchilarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi.

Masofaviy t'olimning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- moslashuvchanlik (t'olim oluvchiga o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda t'olim olish imoniyati mavjudligi;

- modullilik – bir-biri bog'liq bo'lmagan mustaqil o'quv kurslari to'plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o'quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi;

- parallellik – o'quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi.

- keng qamrovlilik – ko'p sonli talabalarning bir vaqtning o'zida katta o'quv (elektron kutubxona, ma'lumotlar va bilimlar bazasi va b.) zahiralari murojaat qila olishi. Bu ko'p sonli talabalarning kommunikatsiya vositalari erdamida o'zaro va o'qituvchi bilan muloqotda bo'lish imkoniyati.

- iqtisodiy tejankorlik – o'quv maydonlari, texnika vositalari, transport vositalari va o'quv materiallaridan samarali foydalanish, o'quv materiallarini bir joyga yig'ish, ularni tartiblangan ko'rinishga keltirish va bu ma'lumotlarga ko'p sonli murojaatni tashkil qilib bera olish orqali mutaxassislarni tayèrlash uchun ketadigan xarajatlarni kamaytirish imkoniyati.

- ijtimoiy teng huquqlilik – t'olim oluvchining yashash joyi, sog'lig'i va moddiy t'aminlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli t'olim olish imkoniyati.

- internatsionallilik – t'olim sohasida erishilgan, jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati.

Quyida masofaviy t'olim modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib o'tamiz:

Birlamchi model faqatgina t'olim oluvchilar bilan masofaviy ishlashda foydalaniladi. Bunda t'olim oluvchilar virtual holatda t'olim beruvchiga biriktiriladi,

topshiriqlarni topshirish uchun bo'limlar tashkil etiladi. Bu modelda t'alim beruvchi va t'alim oluvchiga o'quv shakli va usulini tanlashga imkoniyatlar beriladi.

Ikkilamchi model esa, an'anaviy t'alimda taxsil olaetgan talabalar bilan ishlash uchun tashkil etiladi. Har ikki t'alim masofaviy t'alim modelida ham bir xil o'quv dasturi, jadval, nazorat shakllari va baholash mezonlaridan foydalanish mumkin.

Aralashgan modelda kunduzgi va masofaviy t'alim t'alim turlarining uyg'unligini t'aminlash maqsadida tashkil etilishi bilan xarakterli bo'lib, t'alim oluvchilar o'quv kursining bir qismini kunduzgi an'anaviy asosda, boshqa qismini esa masofaviy t'alimda o'tashi mumkin.

Konsorsium modeli ikkita oliy t'alim muassasasini o'zaro birlashtirishni talab etadi. Oliy t'alim muassasasining birida o'quv kurslari tashkil etilsa, ikkinchi t'alim muassasasi esa shu o'quv kurslariga t'alim oluvchilarni t'aminlaydi. Bu t'alim jaraeniga sohaga yaqin bo'lgan boshqa muassasalar ham qatnashishi mumkin.

Masofaviy t'alimda o'qituvchi va o'quvchi munosabati bevosita aloqa vositalari, Internet orqali (online shaklda) amalga oshiriladi. Shu boisdan ham masofaviy t'alim jarayonini tashkil etishning asosiy qismini talaba kerakli t'alim dasturini o'zlashtirishda mustaqil amalga oshiradi va bunda o'qituvchi zarur o'quv materiallari bilan t'aminlaydi hamda yo'nalish beradi. Masofaviy t'alimda texnik yo'nalishlar uchun amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda ba'zi muammolar mavjud, masalan: o'lchov qurilmalari, laboratoriya jihozlari orqali t'alim jarayoni tashkil etiladi, bu esa masofaviy t'alimda mashg'ulotlarni tashkil etishda katta qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Masofaviy t'alim jarayonini tashkil etishda quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

1. Fanning o'quv dasturi me'yoriy hujjat sifatida Oliy t'alim muassasalarida t'alim faoliyatining asosi bo'lib hisoblanadi, unda o'quv fanlari bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan asosiy bilim, zaruriy ko'nikma va malakalar nazarda

tutiladi. Fanning o'quv dasturini ishlab chiqishda masofaviy t'olim jarayonlarini ham hisobga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Masofaviy t'olimda texnik fanlardan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda yangi o'quv adabiyotlari, o'quv-uslubiy ko'rsatmalar va audio-video darslar yaratish orqali talabalarni fan yuzasidan kerakli materiallar bilan t'aminlash lozim.

3. Masofaviy t'olim tizimini yaratishda dunyoda masofaviy t'olim bo'yicha faoliyat olib borayotgan yetakchi oliy t'olim muassasalari faoliyatini tahlil qilish orqali sifatli va qulay tizimni yaratish lozim.

4. Oliy t'olim muassasalarida texnik fanlarni masofaviy t'olim jarayonida innovatsion t'olim texnologiyalarini keng joriy etish uchun t'olim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarga innovatsion t'olim texnologiyalarini optimal qo'llash masalalari bo'yicha o'z sohasini yetuk mutaxassislarini jalb etgan holda maxsus seminar treninglar tashkil etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ya. Gafforov, S. Toshtemirova (2020). Ways To Increase The Effectiveness Of Education In An Integrated Environment. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine* 7 (7). 647-655.

2. Mardonov, S. K., & Toshtemirova, S. A. (2020). Classifying the educational system as an innovative approach. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12 (92), 180- 182.

3. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 243-247.

4. Toshtemirova, S. (2020). Factors Affecting the Quality of Education and the Importance of the Education Cluster to Address Them. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(4), 151-156.

5. Mukhamedov, G., Khodjamkulov, U., Shofkorov, A., & Makhmudov, K. (2020). Pedagogical education cluster: content and form. *Theoretical & Applied Science*, 1(81), 250-257.

6. Toshtemirova, S.A. (2020). The quality of education is a pedagogical problem. Актуальные вопросы современной науки Материалы VI международной научно-практической конференции, Саратов. 1(1), 39-40.

7. Toshpo'latovich, Y. O. (2022). THE IMPORTANCE OF USING NON-STANDARD TEST TASKS IN MONITORING STUDENT KNOWLEDGE. *Open Access Repository*, 9(11), 44-53.